

Firibgarlardan ehtiyot bo'ling

2022 17 Yanvar

Uzbekistan Airways internet tarmog'ida (asosan WhatsApp ilovasida) firibgarlar tomonidan soxta va o'zgarib turadigan havola tarqatilayotganini ma'lum qiladi <http://nosereward.top/uzairways/tb.php?lmipkvqq1641898852030>.

Ushbu soxta saytda "O'zbekiston havo yo'llari" nomidan pul mukofotlari va boshqa qimmatbaho yutuqlar bilan tanlov o'tkazilmoqda. Barcha savollarga javob berilganda, so'rovnomadan o'tish kerakligi haqida xabar paydo bo'ladi, buning natijasida plastik karta ma'lumotlarini kiritish kerak bo'ladi. Kutilmagan xarajatlardan qochish maqsadida sizdan firibgarlarning to'riga tushib qolmaslikni so'rab qolamiz. Uzbekistan Airways tashkil etadigan tanlovlar aviakompaniya rasmiy saytida joylashtiriladi va tanlovlarni o'tkazish vaqtida bank kartalari ma'lumotlarini kiritish so'ralmaydi.

Uzbekistan Airways plastik kartalardan noqonuniy pul yechib olingani uchun javobgar emas. Uzbekistan Airways mobil firibgarlik holatlarining oshishi munosabati bilan, moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish maqsadida yo'lovchilarni hushyor turishga chaqiradi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways